O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida iqtidorli talabalrning ilmiy-ijodiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan

HISOBOT

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi tomonidan akademiyada ta’lim olayotgan 50 nafar talaba umumiy bazaga kiritilib, ustoz-shogird an’analari asosida professor-o‘qituvchilarga biriktirilgan. Yil davomida iqtidorli talabalar turli xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, quyidagi ko‘rsatkichlarni qayd etdilar.

Talabalarning Respublika miqyosidagi ko‘rik-tanlovlardagi ishtiroki

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabasi Ergasheva Mohina joriy yilda bo‘lib o‘tgan “Yangi O‘zbekiston yulduzlari” madaniyat va san’at milliy mukofoti g‘oliblarini taqdirlash marosimida eng ko‘p ovoz bilan, “Yilning eng yaxshi raqqosasi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

2024 yilning 29 iyun kuni Toshkent shahrida “Узоры Азии” xalqaro madaniyat va san’at festival-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Xalqaro tanlovda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Zamonaviy raqs” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Kazin Sergey oliy mukofot - Gran-Pri sohibi bo‘lib, bosh mukofot Istanbulga sayohatni qo‘lga kiritdi.

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Kasbiy ta’lim” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Xayitmatova Karina joriy yilning 20-21 may kunlari bo‘lib o‘tgan Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi 2-o‘rin g‘olibi bo‘ldi.

20-mart kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Zamonaviy raqs” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Kazin Sergey Chilonzor tuman hokimligi hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi ko‘magi ostida

Xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyat va yutuqlari, shuningdek, yoshlar sporti breyking-zamonaviy raqsni rivojlantirishda faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Talabalarning Xalqaro miqyosidagi ko‘rik-tanlovlaridagi ishtiroki

Joriy yilning 23-mart kuni Qozog‘iston Respublikasining Olmaota shahrida “Fire work of stars” nomli xalqaro raqs ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Mazkur tanlovda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Yusupov Elchin milliy raqs yo‘nalishi bo‘yicha ishtirok etib, Gran-Pri g‘olibi bo‘ldi.

Akademiyaning yana bir talabasi Ibrayimova Ayimxan Abdambet qizi “Искусство в движении” xalqaro ijodiy loyiha tashkiliy qo‘mitasi taklifiga binoan (Rossiya, Bolgariya, Qozog‘iston) hisobot yilining 15-18 mart kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan “Azimut tansa” xalqaro ko‘rik-tanlovida ishtirok etdi. Xalqaro tanlovda Ibrayimova Ayimxon “Tog‘ qizi”, “Zavqim kelur” nomli raqslarni ijro etib, faxrli I-darajali diplom va tashkilot direktori (Bolgariya) tomonidan alohida esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2024 yil 25 fevral kuni respublikamiz poytaxtida, “Seul” Koreya madaniyati va san’ati saroyida “Evrasia Dance 24” xalqaro raqs ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Mazkur tanlovda Qirg‘iziston, Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalaridan raqs san’ati mutaxassislari hakamlik qildilar. Xalqaro raqs ko‘rik-tanlovida “Xoreografiya jamoalari rahbari” yo‘nalishi 3-kurs talabasi Genjebayev Rasul faxrli I-o‘ringa sazovor bo‘lib, Qirg‘izistonning Bishkek shahrida o‘tkaziladigan International Open Championship “Dance World 24” xalqaro raqs ko‘rik-tanloviga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Joriy yilning 25 yanvar kuni “Xoreografiya pedagogikasi” hamda “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi talabalari Joldasbayev

Jaras, Seytmuratov Uktam, Radjabov Xasan Rossiya Federatsiyasining Chelyabinsk shahrida bo‘lib o‘tgan “Janubiy Ural yulduzlari” III Xalqaro ko‘p janrli festival-tanlovida “Xoreografik san’at” nominatsiyasi bo‘yicha faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdilar.

“Professional ta’lim” yo‘nalishi, rus guruhi 1-bosqich talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Trashkova Yelizaveta “Fiestalonia Milenio” (Ispaniya) festival qo‘mitasi tomonidan 2024 yil 22-24 noyabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Open Asia” xalqaro tanlovida birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

Joriy yilning 11-15 dekabr kunlari Bishkek shahrida Qirg‘iziston Respublikasi xalq artisti, Davlat mukofoti laureati, professor Uran Sarbag‘ishev tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan “Улуу-Элес” nomli xalqaro balet tanlovi bo‘lib o‘tdi. Mazkur xalqaro tanlovda “Professional ta’lim” yo‘nalishi 3-kurs talabasi Qo‘chqorov Abdug‘affor ishtirok etib, faxrli 3-o‘rin sohibi bo‘ldi.

Davlat stipendiyalari va nomdor mukofot sovrindorlari

2023/2024 o‘quv yilida “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Yusupov Elchin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi, “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Rasulova Ruhshona Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi sovrindori bo‘ldi.

2024 yil 4 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasining 2022 yil 8 noyabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi va uni 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida”gi 128-son qarori 5-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “Oliy ta’lim muassasalarida ilm-fan sohasida muvaffaqiyatga erishgan

mashhur ayollar nomi bilan ataluvchi stipendiyani joriy etish to‘g‘risida” gi 2022 yil 22 dekabrdagi 422-son buyrug‘i, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektorining 2023 yil 10-yanvardagi “Akademiyada Mukarrama Turg‘unboyeva nomi bilan ataluvchi stipendiyani joriy etish to‘g‘risida”gi 2-i-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, akademiya Kengashi tavsiyasi va akademiya rektorining 2024-yil 4-sentabrdagi 99-t-son buyrug‘iga asosan, 2024-2025 o‘quv yili uchun “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi maxsus stipendiya” “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi, o‘zbek guruhi 3-kurs talabasi Jurakulova Sevinchga topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ–111-son qaroriga muvofiq, “Professional ta’lim” yo‘nalishi, rus guruhi 1-kurs talabasi Trashkova Yelizaveta Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 11 dekabrdagi “2024/2025 o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriat bosqichi talabalariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash to‘g‘risida”gi 464-son buyrug‘iga muvofiq, Xoreografiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, rus guruhi 4-kurs talabasi Abaqulov Asadbek “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi”ga hamda Xoreografiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Xaydarov Islom “Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi”ga sazovor bo‘ldi.

San’at va adabiyot: ilmiy-amaliy izlanishlar natijalari

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Ilm-fan ziyosi” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovda “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi To‘xtasinova Gulira’no o‘zining “Farg‘ona vodiysi va Xorazm vohasidagi raqs maktablarining o‘ziga

xos xususiyatlari" nomli maqolasi bilan ishtirok etib, tanlovning maxsus statuetkasi hamda sertifikati bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 fevraldagi farmoyishiga binoan joriy yilda O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli davlat arbobi Enaxon Siddiqova tavalludining 70 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Enaxon Siddiqova tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab Qozog‘iston hamda O‘zbekiston o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik va do‘stlik ko‘priklarni yanada mustahkamlash maqsadida xalqaro tanlov bo‘lib o‘tdi. Xalqaro tanlovda vakillarimizdan: O‘zDXA Urganch filiali 2-bosqich talabasi B.Masharipova Gran-Pri sohibasi, akademiyamizning "San'atshunoslik" ta'lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi J.Mirsoliyev 1-o‘rin sovrindori bo‘ldi.

"Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.02.2020 yildagi PQ-4585-son qarori ijrosi bugungi kunda amaliyotda o‘zining natijasini ko‘rsatmoqda. "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi To‘xtasinova Gulira'no Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida o‘tkazilgan "Kelajak qanoti" xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovda o‘zining "O‘zbek raqs san'atining rivojlanish yo‘llari" nomli maqolasi bilan ishtirok etib, ko‘rik-tanlovning ko‘krak nishoni, maxsus esdalik statuetkasi hamda sertifikati bilan taqdirlandi.

"Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo‘nalishi sirtqi bo‘lim 5-bosqich talabasi Abdimurodov Madiyor MDH davlatlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada "Tojik raqs san'ati" mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etib, Ilmiy matbuot markazi tomonidan "Ilm fan qanoti" ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

2024 yil 8 yanvar kuni "San'atshunoslik" ta'lim yo‘nalishi talabalari Xalilov Hamroz, Xojiyev Ramizxon, O‘roqov Zoirlar O‘zbekiston tarixi

telekanalida efirga uzatiluvchi “ETNO” ko‘rsatuvining navbatdagi soni, “Turkiy xalqlar madaniyati” mavzusiga bag‘ishlangan jonli suhbatda ishtirok etishdi. Yosh tadqiqotchilarimiz ko‘rsatuv orqali madaniyat va san’at sohasidagi, ayniqsa, raqs san’ati haqidagi iliq fikrlari bilan o‘rtoqlashishdi.

“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs rus guruhi talabasi Asadbek Abakulov o‘z ijodiy faoliyati va qarashlarini “Dunyo bo‘ylab” telekanali orqali efirga uzatilgan "Поколение НЕХТ" teleko‘rsatuvida barcha yurtdoshlarimiz bilan o‘rtoqlashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-53-son Farmoyishi 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish dasturi” 51-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, akademiyada talabalar, magistrantlar va doktorantlar o‘rtasida “Konstitusiya – erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi tashkil etildi. Akademiyaning bakalavriat, magistrant hamda doktorantlaridan jami 25 ta maqola kelib tushdi va ulardan 11 tasi ekspertlar tomonidan tanlab olindi. Unga ko‘ra 3-o‘ringa Mahmudova Aynura, 2-o‘ringa Haydarov Islom, 1-o‘ringa Abakulov Asadbek loyiq deb topildi. Tanlov natijalariga ko‘ra, g‘oliblar va ishtirokchilar 6 dekabr kuni akademiya rahbariyati tomonidan taqdirlandilar.

2024 yil 28 fevral kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Rossiya Federatsiyasidagi hamkori - Moskva Davlat lingvistik universititetida O‘zbekiston Respublikasining Rossiyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda “Zahiriddin Muhammad Bobur - buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixshunos va davlat arbobi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda “San’atshunoslik” ta’lim

yo‘nalishi talabalaridan bir guruhi masofaviy ishtirok etib, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylaridan namunalar o‘qib eshittirishdi.

2024 yil 4-noyabr kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi PQ-323-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita majlisining 158-son bayonida belgilangan “Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar” tanlovinining birinchi bosqichi o‘tkazildi. Tanlovga akademiya talabalaridan kelib tushgan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar ekspertlar guruhi tomonidan tahlil etildi. Ekspertlar xulosasiga ko‘ra “San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Mirsoliyev Jamshidbek 1-o‘rin, “Xoreografiya jamolalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Rasulova Ruxshona 2-o‘rin va “Xoreografiya jamolalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi No‘monova Dilyora 3-o‘rin g‘olibi deb topilib, tanlovning keyingi bosqichiga tavsiya etildi.

2024 yil 15-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 36-son qarorining 3-bandiga asosan talaba va o‘quvchilarning jamiyat taraqqiyotiga munosabatini aniqlash, ularda notiqlik mahorati va ilmiy salohiyatni namoyon qilish, xorijiy talabalar bilan O‘zbekiston talabalarining ilmiy muloqotini tashkil etish maqsadida “Dunyoqarashlar muloqoti: yoshlarning jamiyat kelajagiga munosabati”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida akademiya iqtidorli talabalari faol ishtirok etdilar.

2024 yilning 24 noyabr kuni Toshkent shahrining “Songress Hall” saroyida “O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazi” tashabbusi bilan umrboqiy meros “Maqomlar - san’atning gultoji" nomli Uyg‘ur 12 muqamiga bag‘ishlangan xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Forumda “Xoreografiya jamoalarini boshqarish” mutaxassisligi 2-kurs magistranti Surayya Arkin ishtirok etdi.

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning talaba-yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv doirasida iqtidorli talabalar e’tirof etildi. Shu jumladan, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi talabasi Nomonova Dilyoraxon hamda San’atshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabasi Davronov Dadaxon namunali xulqi, ijodkorlik qobiliyati, mehnatsevarligi uchun “Tashakkurnoma” hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Bo‘lim boshlig‘i **SH.Xudoynazarova**